





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA  
XIZMATLAR SOHASINING  
ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil  
yanvar-sentabr



*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-sentabr)

72,0



**Xizmatlar sohasidagi  
korxonalar va  
tashkilotlar  
ulushi, % da**

15 232,3




**Aholi jon  
boshiga  
xizmatlar  
hajmi, ming  
so'mda**

55,6




**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlikning  
ulushi, % da**




**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


## Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1- oktabr holatiga ko'ra)



## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-sentabr)



## Soni, birlikda



## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- oktabr holatiga ko'ra)

67,8



2024- y.

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2020- y.



59,9

Soni, birlikda

2024

270 513

2023

276 468

Yillar

2022

316 338

2021

287 280

2020

234 304

Soni, birlikda

2024

40 530

2023

44 952

Yillar

2022

43 283

2021

46 486

2020

39 169

## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-sentabr)

2024- y.

64,8



Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi, % da


55,8



2020- y.


## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-sentabr)



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar-sentabr)



<sup>1)</sup> Grafikda va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillarga aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan, 2023- yil hajmi va 2024- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan shakllantirilgan.


**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-sentabr)


Hududlar nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>O'zbekiston Respublikasi <sup>1)</sup></b>	<b>564 777,7</b>	<b>100,0</b>	<b>112,8</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	19 647,1	3,5	111,2
viloyatlar:			
Andijon	28 536,1	5,1	112,9
Buxoro	23 781,7	4,2	112,1
Jizzax	13 719,2	2,4	113,2
Qashqadaryo	29 334,0	5,2	110,3
Navoiy	13 802,1	2,4	111,2
Namangan	29 247,7	5,2	112,1
Samarqand	39 780,3	7,0	112,6
Surxondaryo	19 619,8	3,5	110,2
Sirdaryo	7 859,8	1,4	110,1
Toshkent	38 838,4	6,9	112,6
Farg'ona	37 731,7	6,7	111,9
Xorazm	19 164,5	3,4	112,6
Toshkent sh.	208 611,5	36,9	117,0

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-sentabr)




## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-sentabr)






## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-sentabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **55,6** foizni, shu jumladan, **35,6** foizni kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-sentabr)





Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-sentabr)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>564 777,7</b>	<b>100,0</b>	<b>112,8</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	38 953,8	6,9	123,4
Moliyaviy xizmatlar	97 608,4	17,3	120,3
Transport xizmatlari	97 091,9	17,2	108,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	46 370,2	8,2	111,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	119 515,2	21,2	110,4
Savdo xizmatlari	106 366,6	18,8	111,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	14 844,0	2,6	113,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	21 037,1	3,7	115,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	11 315,5	2,0	108,6
Ijara xizmatlari	6 821,4	1,2	104,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	8 498,1	1,5	111,4
Shaxsiy xizmatlar	11 133,4	2,0	108,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	7 364,7	1,3	105,1
Boshqa xizmatlar	24 227,6	4,3	109,4

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-sentabr)



**2024-yil yanvar-sentabr oylarida** xizmatlarning umumiy hajmida (yasirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda) yashash va ovqatlanish xizmatlarining ulushi **21,2** foizni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **95,5** %.

## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

(2024- yil yanvar-sentabr)


Toshkent shahri	19 468,4	○ +9,3
Samarqand	12 871,7	○ +9,8
Farg'ona	11 960,9	○ +10,8
Namangan	11 855,1	○ +12,0
Qashqadaryo	11 129,1	○ +8,3
Toshkent	8 812,6	○ +10,9
Andijon	8 046,9	○ +11,2
Qoraqalpog'iston Resp.	7 098,9	○ +11,2
Xorazm	6 662,9	○ +11,7
Buxoro	6 487,8	○ +12,4
Surxondaryo	5 392,2	○ +7,9
Jizzax	3 758,3	○ +11,4
Navoiy	3 670,2	○ +9,0
Sirdaryo	2 300,0	○ +10,3

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ○ O'sishi, % da

## Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar-sentabr) <sup>1)</sup>

**2024- yilning yanvar-sentabr** oylarida chakana savdoning ulushi (yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda) umumiy savdo xizmatlarining yarmidan ziyod qismini, ya'ni **55,1 %** ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)



Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi, % da
Toshkent shahri	37 802,6	+6,2
Toshkent	10 503,3	+15,3
Farg'ona	7 889,8	+12,2
Samarqand	7 368,7	+15,3
Andijon	6 281,8	+12,6
Namangan	5 813,9	+14,0
Qashqadaryo	5 784,9	+11,7
Buxoro	5 441,4	+12,2
Surxondaryo	5 251,9	+14,0
Jizzax	3 637,5	+28,5
Qoraqalpog'iston Resp.	3 184,9	+17,7
Navoiy	3 026,5	+9,6
Xorazm	2 941,6	+13,4
Sirdaryo	1 418,3	+9,9

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr)



## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr, mlrd so'mda)

Toshkent shahri	57 492,4
Farg'ona	5 063,6
Andijon	4 040,1
Samarqand	4 005,9
Toshkent	3 694,3
Buxoro	3 349,8
Qashqadaryo	3 129,4
Xorazm	2 959,2
Surxondaryo	2 755,1
Qoraqalpog'iston Resp.	2 580,8
Navoiy	2 449,3
Namangan	2 365,2
Jizzax	2 084,1
Sirdaryo	1 639,2


## Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-sentabr, % da)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-sentabrda 87,9** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **58,9** foizni yoki **57 492,4** mlrd so'mni tashkil etdi. **2023- yil yanvar-sentabr** oylariga nisbatan ushbu hududda yuqori o'sish sur'ati **127,4** foiz qayd etildi.

## Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-sentabr) <sup>1)</sup>



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – 47,8 foiz.

Toshkent shahrida transport xizmatlari hajmi 18 842,7 mlrd so'mni tashkil etib, mazkur hududda transport xizmatlari hajmi-ning o'sish sur'ati 124,8 foizni tashkil etgan.


## Hududlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)

Toshkent shahri	18 842,7	+24,8
Toshkent	6 571,2	+12,1
Samarqand	6 228,6	+14,3
Farg'ona	4 638,3	+10,8
Andijon	3 961,3	+14,6
Buxoro	3 642,3	+9,1
Qashqadaryo	3 619,2	+10,4
Namangan	3 184,0	+18,4
Qoraqalpog'iston Resp.	2 872,5	+2,8
Xorazm	2 660,4	+11,7
Surxondaryo	2 118,0	+10,2
Navoiy	1 674,0	+15,5
Jizzax	1 340,5	+13,1
Sirdaryo	713,6	+18,8

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-sentabr) <sup>1)</sup>

**2024- yilning yanvar-sentabr** oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **46 370,2** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **8,2 %** ni tashkil etdi.



Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi, % da
Toshkent shahri	7 806,2	+8,9
Toshkent	6 060,0	+13,7
Samarqand	5 571,0	+13,6
Farg'ona	4 242,8	+10,3
Andijon	3 770,9	+15,5
Qashqadaryo	3 411,6	+12,5
Buxoro	3 304,0	+10,3
Namangan	2 753,2	+16,9
Xorazm	2 473,6	+5,9
Surxondaryo	1 860,7	+11,0
Qoraqalpog'iston Resp.	1 642,2	+18,6
Navoiy	1 521,1	+16,6
Jizzax	1 286,3	+9,7
Sirdaryo	664,5	+18,6

**Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari**  
(2024- yil yanvar-sentabr)



**2024- yilning yanvar-sentabr** oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **57,0** foizga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to'g'ri keladi – **46,1 %**.

■ Hajmi, mlrd so'mda ■ O'sishi, % da

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda





## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-sentabr) <sup>1)</sup>



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmi telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-sentabr** oylaridagi ulushi **38,6 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi, % da
Toshkent shahri	27 954,5	+26,1
Farg'ona	1 484,3	+12,9
Samarqand	1 340,8	+18,6
Toshkent	1 190,1	+21,1
Andijon	1 012,7	+15,5
Qashqadaryo	944,5	+15,9
Namangan	905,9	+18,6
Surxondaryo	793,5	+16,4
Buxoro	721,4	+16,9
Qoraqalpog'iston Resp.	695,9	+18,2
Xorazm	678,1	+23,7
Navoiy	443,7	+18,6
Jizzax	414,0	+16,7
Sirdaryo	332,6	+16,4


<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

◆ O'sishi, % da



## Telekommunikatsiya xizmatlarining dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-sentabr)



2024- yil yanvar-sentabr oyi yakunlariga ko'ra telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **15 028,4** mlrd so'mga yetdi va 2023- yilning shu davriga nisbatan o'sish **13,5** % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)

Toshkent shahri	6 397,5	+11,4
Farg'ona	1 079,0	+11,0
Samarqand	1 056,0	+16,4
Andijon	857,6	+12,6
Toshkent	808,5	+20,6
Qashqadaryo	764,9	+14,0
Namangan	731,1	+16,4
Surxondaryo	601,4	+12,2
Buxoro	598,7	+15,4
Xorazm	550,8	+18,1
Qoraqalpog'iston Resp.	550,7	+16,5
Navoiy	365,2	+16,5
Jizzax	357,8	+14,0
Sirdaryo	286,5	+14,5

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

⚙️ O'sishi, % da



# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

## OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2024- yil yanvar-sentabr)

Muqobil to'plam ko'rsatkichlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
<b>Jami</b>	<b>40 285,3</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:		
<b>AKT xizmatlari sektori</b>	<b>36 122,2</b>	<b>89,7</b>
shu jumladan:		
Dasturiy ta'minotni nashr qilish bo'yicha xizmatlar	2 235,4	6,2
Telekommunikatsiya xizmatlari	15 028,4	41,6
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	15 011,8	41,5
Ma'lumotlarga ishlov berish, joylashtirish bo'yicha xizmatlar va o'zaro bog'liq xizmatlar; web-portallar	2 515,1	7,0
Kompyuterlar va aloqa uskunalarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1 331,5	3,7
<b>Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori</b>	<b>4 163,1</b>	<b>10,3</b>
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	619,5	14,9
Kino-videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	314,7	7,5
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	974,0	23,4
Boshqa axborot xizmatlari	2 254,9	54,2

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-sentabr)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-sentabr** oylaridagi ulushi **48,7** foizni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-sentabr, mlrd so'mda)


Toshkent shahri	10 088,2
Samarqand	1 596,8
Farg'ona	1 247,0
Buxoro	1 183,9
Toshkent	1 127,2
Namangan	1 061,6
Andijon	1 061,0
Qashqadaryo	771,7
Surxondaryo	683,9
Qoraqalpog'iston Resp.	674,0
Xorazm	544,6
Navoiy	413,5
Jizzax	382,4
Sirdaryo	201,3




Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Toshkent shahriga to'g'ri keladi. **2024-yilning yanvar-sentabr** oylari davomida mazkur hududda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **10 088,2** mlrd so'mni yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **48,0** foizini tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024- yil yanvar-sentabr** oylaridagi ulushi **53,0** foizni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **30,5** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **16,5** foizni tashkil etdi.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr)



## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr)



## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-sentabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **67,8** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024- yil yanvar-sentabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi, % da
Toshkent shahri	8 930,1	+13,9
Toshkent	1 065,8	+12,3
Samarqand	750,0	+15,2
Farg'ona	637,3	+14,0
Andijon	508,5	+9,0
Qashqadaryo	478,6	+12,1
Namangan	434,9	+8,8
Surxondaryo	369,4	+9,9
Buxoro	359,3	+5,9
Xorazm	326,1	+11,8
Qoraqalpog'iston Resp.	320,5	+13,3
Navoiy	256,3	+27,5
Jizzax	230,9	+20,9
Sirdaryo	166,5	+9,8

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi, % da

## Ijara xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-sentabr)



## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr, mlrd so'mda)



**2024- yilning yanvar-sentabr** oylarida ijara xizmatlari hajmi **6 821,4** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **54,6** foizni tashkil etadi.

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



## Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-sentabr, mlrd so'mda)




**2024-yil yanvar-sentabr** oylarida huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **1 507,8** mlrd so'mga yetdi.



## Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar

(2024-yil yanvar-sentabr, mlrd so'mda)



Ushbu xizmatlar hajmining salmoqli qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keldi, uning huquq va buxgalterlik hisobi sohasida ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmidagi ulushi **83,8** foiz yoki **1 263,7** mlrd so'mni tashkil etdi.

2023-yilning shu davriga nisbatan mazkur hudud bo'yicha huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **289,9** mlrd so'mga yoki **20,9** foizga oshdi.



## Aholi jon boshiga huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr, ming so'mda)

Yuridik va buxgalteriya xizmatlari zamonaviy biznes va jismoniy shaxslar hayotida asosiy rol o'ynaydi, huquqiy himoya va moliyaviy shaffoflikni ta'minlaydi.



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr, ming so'mda)



**2024- yilning yanvar-sentabr** oylarida Toshkent shahrida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan huquq va buxgalteriya hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **411,9** ming so'm darajasiga yetdi. Shuningdek, Navoiy (**16,6** ming so'm) va Toshkent (**12,4** ming so'm) viloyatlarida nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Surxondaryo viloyatida esa bu ko'rsatkich o'rtacha **2,1** ming so'mni tashkil etdi.

## Yuridik xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr, mlrd so'mda)



**2024- yil yanvar-sentabr** oylarida yuridik xizmatlarning huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi jami xizmatlar hajmidagi ulushi **31,7 %** yoki **477,6** mlrd so'mni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida yuridik xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr, mlrd so'mda)



Hududlar orasida ushbu xizmat turiga Toshkent shahrida talab yuqori. Ushbu hududda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **357,4** mlrd so'mni yoki yuridik xizmatlar jami hajmining **74,8** foizini tashkil etdi.

Buning sababi shundaki, shaharlarda aholi zichligi, ko'proq tijorat va fuqarolik operatsiyalari va huquqiy nizolar sonining ko'payishi tufayli yuridik xizmatlarga talab sezilarli darajada oshadi.

## Aholi jon boshiga yuridik xizmatlar dinamikasi

(yanvar-sentabr, ming so'mda)

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar hajmi o'rtacha **12,9** ming so'mni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar


(2024- yil yanvar-sentabr, ming so'mda)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar hajmi **116,5** ming so'mga yetdi. Shu bilan birga, Xorazm (**7,9** ming so'm) va Toshkent (**5,4** ming so'm) viloyatlarida nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Surxondaryo viloyatida esa yuridik xizmatlar hajmi o'rtacha **1,4** ming so'mni tashkil etdi.


## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-sentabr)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 47,4 foizini tashkil etadi.

## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda    ◆ O'sishi, % da

## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr)



## Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr, mlrd so'mda)

Toshkent shahri	4 333,2
Toshkent	557,6
Navoiy	499,2
Samarqand	374,0
Qashqadaryo	235,9
Surxondaryo	187,7
Farg'ona	186,5
Andijon	174,9
Xorazm	166,6
Qoraqalpog'iston Resp.	165,3
Namangan	163,2
Buxoro	144,7
Jizzax	128,8
Sirdaryo	47,1



**2024- yilning yanvar-sentabr** oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **7 364,7** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **58,8** foizni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (shartnoma) qiymati aks ettiriladi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.



**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksesuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

**Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi** – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar bo'yicha maslahat berishdan, shuningdek, buxgalteriya hisobini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

**Yuridik xizmatlar hajmi** fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati ko'rsatish va vakillik qilishni, shuningdek, yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a'zolari bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari narxini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi  
Tel.: 71-202-80-59 (61)